

## ХО'JALIK JAMIYATLARIDA AKSIYADOR VA ISHTIROCHILARNING HUQUQLARI VA MAJBURIYATLARI

Suyarova Madina Qahramonovna.

Parkent tumani 1-son FHDY bo'limi 1-toifali inspektori

e-mail: [kaxramanovnam@gmail.com](mailto:kaxramanovnam@gmail.com)

**Annotation:** Ushbu maqolada korporatsiya huquqi va uning ahamiyati, korporatsiyalarning turlari, xo'jalik jamiyatlarini va xo'jalik shirkatlarining bir-biridan farqi, jamiyat ishtirokchilarining huquqlari va majburiyatlari, O'zbekiston Respublikasi qonunchiligidagi xo'jalik jamiyati to'g'risidagi normalari, jahon hamjamiyati hamda bizning qonunchiligmizda korporatsiyalarning o'xshash va farqli jihatlari, shuningdek mazkur maqolada xo'jalik jamiyati ishtirokchilarining nizolari yuzasidan sud tomonidan chiqarilgan sud hujjatlarini ham ko'rishimiz mumkin.

**Kalit so'zlar:** korporatsiya, xo'jalik jamiyati, huquq va majburiyat tijorat tashkilotlar, qonunchilik normalari, jahon amaliyoti, sud hujjatlari

## ПРАВА И ОБЯЗАННОСТИ АКЦИОНЕРОВ И УЧАСТНИКОВ ХОЗЯЙСТВЕННЫХ ОБЩЕСТВ

Суярова Мадина Каҳрамоновна.

Инспектор 1-категорий отдел ЗАГС Паркентского района

**Аннотация:** В данной статье право на корпорацию и ее значение, виды корпораций, отличие хозяйственных обществ от хозяйственных обществ, права и обязанности участников общества, нормы хозяйственного общества в законодательстве Республики Узбекистан, мировое сообщество и сходные и разные аспекты корпораций в нашем законодательстве, а также в данной статье

мы можем увидеть судебные документы, выданные судом в связи со спорами участников хозяйственного общества.

**Ключевые слова:** корпорация, хозяйственное общество, права и обязанности, коммерческие организации, правовые нормы, мировая практика, судебные документы.

## RIGHTS AND OBLIGATIONS OF SHAREHOLDERS AND PARTICIPANTS IN BUSINESS COMPANIES

Suyarova Madina Kahramonovna

Inspector of the 1<sup>st</sup> category of the registry office of the Parkent district

**Abstract:** In this article, the right of corporation and its importance, types of corporations, the difference between economic societies and economic companies, the rights and obligations of society participants, the norms of the economic society in the legislation of the Republic of Uzbekistan, the world community and the similar and different aspects of corporations in our legislation, as well as in this article we can see the court documents issued by the court in connection with the disputes of the participants of the economic society.

**Key words:** corporation, economic society, rights and obligations, commercial organizations, legal norms, world practice, court documents

### Kirish

Korporativ huquq deganda korporatsiyalarga tegishli huquqning huquqiy amaliyoti yoki korporatsiyalar nazariyasi tushuniladi. Bu tijorat va shartnoma huquqi bilan bog'liq. Korporativ huquq har qanday korporatsiyaning yaratilishi va ishlashini nazorat qiluvchi qoidalar, amaliyotlar, qoidalar va qonunlarni tashkil etadi. Ushbu

qonun organi biznes yuritadigan yuridik shaxslarni boshqaradi. Korporatsiyalar davlat qonunchiligiga binoan tuziladi va korporatsiya egalari aktsiyadorlar deb ataladi. Korporativ huquq korporatsiya duch kelishi mumkin bo'lgan barcha huquqiy masalalarni o'z ichiga oladi. Korporatsiyalar korporatsiyalarga beriladigan soliq va boshqa imtiyozlardan foydalanish uchun ularga rioya qilishlari kerak bo'lgan ko'plab qoidalarga bo'y sunadilar. Korporatsiyalarning ham bir qancha turlari mavjud bo'lib ular asosan ikkita turga tijorat va notijorat tashkilotlariga bo'linadi. Eng keng tarqalgan qarashlarni umumlashtirgan holda, korporatsiyalar qatoriga tijorat tashkilotlari – xo'jalik shirkatlari, xo'jalik jamiyatlari, xo'jalik sherikliklari, ishlab chiqarish kooperativlari hamda notijorat tashkilotlar – assotsiatsiya (uyushmalar), iste'mol kooperativlari va ishtirok etish yoki a'zolik tamoyili asosida qurilgan boshqa notijorat tashkilotlarni ham o'z ichiga olishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksida xo'jalik jamiyatlari va shirkatlari haqida bayon qilingan bo'lib, umumiylardan xo'jalik jamiyatlari va shirkatlarining asosiy farqi javogarligida deyish mumkin. Xo'jalik shirkatlarida shirkatlar ishtirokchilarining kapitallari va bevosita shaxsiy faoliyatlarining birlashtirilishi bo'lsa, jamiyatlarda kapitallarning birlashtirilishi amalga oshiriladi, faoliyatni yuritish faqat ma'lum shaxslarga yuklatilishi mumkin. Boshqacha aytganda, xo'jalik shirkatlari bu shaxslar va ulardan har birining bevosita harakatlari (to javobgarlikkacha) foyda olish maqsadida birlashuvi bo'lsa, xo'jalik jamiyatlari esa faqat ularning ishtirokchilari kapitallarining birlashuvi bo'lib, ulardan har birining jamiyat faoliyatida bevosita ishtirokisiz amalga oshadi. Shu tufayli shirkatning har bir ishtirokchisi (kommandit shirkatdagi kommanditchilar bundan istisno) shirkatning barcha majburiyatlari bo'yicha o'zining barcha mol-mulki bilan cheklanmagan tarzda javobgar bo'ladi. Xo'jalik jamiyatining ishtirokchilari esa, unga ishtirokchilarining shaxsiy sa'y-harakatlari emas, ularning mol-mulkini birlashtirish xos bo'lgani tufayli, jamiyatning majburiyatlari bo'yicha cheklanmagan javobgar bo'lmaydi, ularning tadbirkorlik tavakkalchiligi ularning jamiyat ustav fondiga kiritgan hissalarining miqdori bilan cheklanadi.

Xo'jalik jamiyatlari- xo'jalik va tadbirkorlik faoliyatini yuritish maqsadida, yuridik va jismoniy shaxslarning kapitallari va shaxsiy faoliyati foyda olishi yuzasidan umumiylar maqsadga erishish uchun birlashtiriladigan tijorat tashkilotlari sifatida belgilanadi. Xo'jalik jamiyatları dunyoda universal va eng keng tarqalgan jamoaviy tadbirkorlikning klassik shakli hisoblanadi. O'zbek huquqida xo'jalik jamiyatlarining 2 ta tashkiliy-huquqiy shakli mavjud:

1. aksiyadorlik jamiyat;
2. mas'uliyati cheklangan jamiyat;

”Aksiyadorlik jamiyatlari hamda aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to`g`risida”gi qonunning 26-moddasida aksiyadorlarning bir nechta huquqlari belgilab qo`yilgan. Aksiyadorlik jamiyatining aksiyadori, tegishli jamiyat aksiyadorlarining reystriga kiritilish, depo hisobvarag‘idan o‘ziga taalluqli ko‘chirma nusxa olish, jamiyatning moliya-xo'jalik faoliyati natijalari to‘g`risida to‘liq va ishonchli axborotni belgilangan tartibda olish, aksiyadorlarning umumiylar yig‘ilishlarida ovoz berish orqali jamiyatni boshqarishda ishtirok etish, jamiyat tugatilgan taqdirda o‘zlariga tegishli ulushga muvofiq mol-mulkning bir qismini olish, jamiyat foydasining bir qismini dividendlar tarzida olish, olgan dividendini erkin tasarruf etish, qimmatli qog‘ozlar bozorini tartibga solish bo‘yicha vakolatli davlat organida, shuningdek sudda o‘z huquqlarini himoya qilish, o‘ziga yetkazilgan zararning o‘rni qoplanishini belgilangan tartibda talab qilish, o‘z manfaatlarini ifodalash va himoya qilish maqsadida uyushmalarga va boshqa nodavlat notijorat tashkilotlariga birlashish, qimmatli qog‘ozlarni olishda zarar ko‘rish, shu jumladan boy berilgan foyda ehtimoli bilan bog‘liq tavakkalchiliklarni sug‘urta qilish huquqiga ega.

”Mas`uliyati cheklangan hamda qo`shimcha mas`uliyatlari jamiyatlar to`g`risida”gi qonunning 9-moddasida jamiyat ishtirokchilarining qonun bilan belgilab qo`yilgan huquqlari sanab o`tilgan. Qonunga ko`ra, ishtirokchilar, jamiyatning ta’sis hujjalarda belgilangan tartibda jamiyatning ishlarini boshqarishda ishtirok etish,

qonunchilikda va jamiyat ta'sis hujjatlarida belgilangan tartibda jamiyatning faoliyati to‘g‘risida axborot olish hamda uning buxgalteriya daftarlari va boshqa hujjatlari bilan tanishish, foydani taqsimlashda ishtirok etish, jamiyatning ustav fondidagi (ustav kapitalidagi) o‘z ulushini yoxud uning bir qismini jamiyatning ustavida nazarda tutilgan tartibda mazkur jamiyatning bir yoki bir necha ishtirokchisiga sotish yoki o‘zga tarzda ularning foydasiga voz kechish, jamiyat boshqa ishtirokchilarining roziligidan qat’i nazar ushbu Qonunda va jamiyatning ta’sis hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda istalgan vaqtida jamiyatdan chiqish, jamiyat tugatilgan taqdirda, kreditorlar bilan hisob-kitob qilinganidan keyin qolgan mol-mulkning bir qismini yoki uning qiymatini olish kabi bir qancha huquqlarga egadir.

Shuningdek, ishtirokchilarining uzviy huquqlaridan biri bo`lgan ovoz berish huquqi muhim ahamiyat kasb etadi. Bir qancha yetakchi mamlakatlar singari qonunchilikda ovoz berishni ya`ni umumiy yig`ilishda ovoz berish faqatgina yig`ilishga tashrif buyurib amalga oshiriladi. Masofadan turib yoki elektron pochta orqali ovoz berilishi qonuniy tomondan mustahkamlanmagan. Rossiya Federatsiyasidagi qiziq bir voqeani ham aytib o’tamiz. Yaqin yillarda jamiyatni boshqarishda yuqori o`rinlarda turuvchi ishtirokchilar, jamiyat hayotiga oid bo`lgan muhim qarorlarni chiqarishda odatda kichik huquqlarga ega ishtirokchilarni chaqirmasdan, yig`ilishga taklif etmasdan yig`ishni o`tkazib yuborgan bu esa o‘z navbatida ishtirokchilarining huquqlari buzulishiga olib kelgan.

Qozog’iston Respublikasining Fuqarolik kodeksidagi xo’jalik jamiyatni ishtirokchilarining huquq va majburiyatlarini ko’rib o’tamiz.

Mas’uliyati cheklangan jamiyat bir yoki bir nechta shaxs tomonidan tashkil etilgan sheriklik deb tan olinadi, uning ustav kapitali ta’sis hujjatlarida belgilangan miqdorlarning ulushlariga bo’linadi; mas’uliyati cheklangan jamiyat ishtirokchilari uning majburiyatları bo'yicha javobgar emaslar va sheriklik faoliyati bilan bog'liq yo'qotishlar xavfini ular qo'shgan hissalar qiymati doirasida o'z zimmalariga oladilar.

To'liq hissa qo'shmagan ma'suliyati cheklangan jamiyat ishtirokchilari har bir ishtirokchining hissasining to'lanmagan qismi qiymati doirasida uning majburiyatlari bo'yicha birgalikda javobgar bo'ladilar. Mas'uliyati cheklangan jamiyat ishtirokchilari soni cheklanmagan.

Mas'uliyati cheklangan jamiyat yagona ishtirokchi sifatida bir kishidan iborat boshqa xo'jalik shirkatiga ega bo'lolmaydi.

Uning har qanday ishtirokchisining iltimosiga binoan mas'uliyati cheklangan jamiyat faoliyatini auditorlik tekshiruvi o'tkazilishi kerak.

Mas'uliyati cheklangan jamiyatning ommaviy hisoboti talab qilinmaydi, qonun hujjatlarida yoki ta'sis hujjatlarida nazarda tutilgan hollar bundan mustasno.

Mas'uliyati cheklangan jamiyat o'z ishtirokchilarining qaroriga binoan ixtiyoriy ravishda qayta tashkil etilishi yoki tugatilishi mumkin. Mas'uliyati cheklangan jamiyatlarni qayta tashkil etish va tugatishning boshqa asoslari ushbu Kodeks va qonun hujjatlari bilan belgilanadi.

Mas'uliyati cheklangan jamiyat boshqa xo'jalik shirkatiga, aksiyadorlik jamiyatiga yoki ishlab chiqarish kooperativiga o'zgartirish huquqiga ega.

O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksida mas'uliyati cheklangan jamiyatga quyidagicha ta'rif berilgan

Mas'uliyati cheklangan jamiyat deb bir yoki bir necha shaxs tomonidan ta'sis etilgan, ustav fondi (ustav kapitali) ta'sis hujjatlari bilan belgilab qo'yilgan miqdordardagi ulushlarga bo'lingan jamiyat tan olinadi. Mas'uliyati cheklangan jamiyatning ishtirokchilari uning majburiyatlari bo'yicha javobgar bo'lmaydilar va jamiyat faoliyati bilan bog'liq zarar uchun o'zları qo'shgan hissalar qiymati doirasida javobgar bo'ladilar.

Jamiyatning o‘z hissasini to‘la qo‘shtagan ishtirokchilari jamiyat majburiyatlari bo‘yicha har bir ishtirokchi hissasining to‘lanmagan qismining qiymati doirasida solidar javobgar bo‘ladilar.

Mas’uliyati cheklangan jamiyatning firma nomi jamiyatning nomini, shuningdek “mas’uliyati cheklangan” degan so‘zlarni o‘z ichiga olishi kerak.

Mas’uliyati cheklangan jamiyatning huquqiy mavqeyi, uning ishtirokchilarining huquq va burchlari ushbu Kodeks hamda boshqa qonun hujjatlari bilan belgilanadi.

Yuqorida keltirilgan ikkita davlatning qonunchiligidagi birinchi farq sifatida Mas’uliyati cheklangan jamiyat ishtirokchilarining sonini keltirishimiz mumkin Qozog’iston Respublikasining qonunchiligiga ko’ra MCHJ ishtirokchilarining soni cheklangan. Bizning milliy normalarimizga ko’ra MCHJ ishtirokchilarining soni 50 tadan oshsa o‘z tashkiliy huquqiy shaklini Aksiyadorlik Jamiyati ko’rinishga o’tkazishi lozim bo’ladi. Ikkinchi e’tiborli farq shundaki Qozog’iston Respublikasining qonunchilik normasiga ko’ra MCHJning istalgan ishtirokchisi auditorlik tekshiruvini o’tkazishi mumkin ekan ammo bizning qonunchiligidizda bu belgilanmagan. Yuqorida keltirilgan boshqa huquqlar o’xshash deb o’ylayman.

Ushbu davlatning qonunchiligidagi va milliy qonunchiliiziда keltirilgan Aksiyadorlik Jamiyati haqida so’z yuritamiz.

Aksiyadorlik jamiyati-bu o‘z faoliyatini amalga oshirish uchun mablag ‘jalb qilish maqsadida aktsiyalar chiqaradigan yuridik shaxs. Aksiyadorlik jamiyati aksiyadorlari uning majburiyatlari bo‘yicha javobgar bo‘lmaydilar va jamiyat faoliyati bilan bog ‘liq zararlar xavfini o‘zlariga tegishli Aksiyalar qiymati doirasida, qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollar bundan mustasno. Aksiyadorlik jamiyati o‘z ishtirokchilarining mol-mulkidan ajratilgan mol-mulkka ega, o‘z mol-mulki doirasida o‘z majburiyatlari uchun javobgar bo‘ladi va o‘z ishtirokchilarining majburiyatlari uchun javobgar bo‘lmaydi. Aksiyadorlik jamiyati, agar qonun hujjatlarida boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo‘lsa, bitta aktsiyador kompaniyaning barcha aktsiyalarini sotib olgan

taqdirda, bitta shaxs tomonidan tuzilishi yoki bitta shaxsdan iborat bo'lishi mumkin. Aksiyadorlik jamiyatining huquqiy holati, aksiyadorlarning huquq va majburiyatlari ushbu Kodeksga, qonun hujjatlariga muvofiq belgilanadi. Davlat korxonalarini xususiyashtirish yo'li bilan tashkil etilgan yoki aksiyalarning nazorat paketi davlatga tegishli bo'lgan aksiyadorlik jamiyatlarining huquqiy holatining xususiyatlari Qozog'iston Respublikasining qonun hujjatlari bilan belgilanadi.

5. Qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda aksiyadorlik jamiyatining tashkiliy-huquqiy shaklida notijorat tashkilotlar tashkil etilishi mumkin.

### **FOYDALANILGAN NORMATIV HUJJATLAR:**

1. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi. <https://lex.uz/docs/111189>.
2. O'zbekiston Respublikasining 2001-yil 6-dekabrdagi "Mas'uliyati cheklangan va qo'shimcha mas'uliyatli jamiyatlar to'g'risida"gi 310-II-son Qonuni. <https://www.lex.uz/acts/-22525>
3. O'zbekiston Respublikasining 2017-yil 6-apreldagi "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi 370-som Qonuni <https://lex.uz/docs/-2382409>
4. Qozog'iston Respublikasining Fuqarolik kodeksi
5. "Aksiyadorlik jamiyatlari haqida" Qozog'iston Respublikasining 2003-yil 13-maydagi 415-somli Qonuni

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. B.Umarov, X.Atajanov. Korporativ huquq o'quv qo'llanma. Toshkent 2021.
2. X.R.Raxmonqulov, O.O.Oqyulov O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksiga sharx, Toshkent «Vektor-Press» 2010 <https://www.osce.org/files/f/documents/8/7/74875.pdf>
3. <https://www.contractscounsel.com/b/corporation-la>
4. <https://www.osce.org/files/f/documents/8/7/74875.pdf>